

**SPECIFIC ASPECTS OF TRAINING STUDENTS IN INFORMATION
SECURITY AS WELL AS THE USE OF NETWORK EDUCATIONAL AND
INFORMATION RESOURCES IN ITS STUDY.**

A.A. Rakhimov

**Samarkand Branch of Tashkent International University of Chemistry
teacher Department of "Social Sciences".**

Independent researcher

+998990295005

akmaldarkness@gmail.com

Annotation: in this article, the application of modern media, the content of the goals of the pedagogical process, the method, means and organizational forms affecting the differentiation of education, its humanitarianism, activation, preparation for economic activity, implementation of practical, educational, educational, developmental and professional goals on the basis of a comprehensive orientation, the solution of problematic educational tasks at the professional level

Keywords: active approach, application of tools, content-procedural, professional goals, as a result, developmental, motor and organizational forms, pedagogical process, information security, educational, educational.

Hozirgi vaqtida pedagogik texnologiya – nafaqat zamonaviy axborot vositalarini qo'llashga asoslangan axborot, balki aynan kompyuter texnologiyasi bilan bevosita bog'langan bo'lib, u maqsadli, mazmuniy-prosessual, nazorat-baholovchi yoki natijaviy komponentlarni o'z ichiga oladi, ularni quyidagilarga:

pedagogik jarayon maqsadlarini tarkiblashtirish va aniqlashtirish;
ta'lim mazmunida bilimlar tizimini va o'quv ma'lumotlarini o'zgartirish;
ta'limda fanlararo va fanlarichra bog'lanishlar uzviyligini tahlil qilish;

ta’limni tabaqalanishiga, uning insonparvarligiga, faollashishiga ta’sir ko’rsatuvchi metod, vosita va tashkiliy shakllari kabi ta’lim faoliyatini tanlashga ajratish mumkin.

Ta’lim maqsadi didaktik tadqiqotlarda ta’limning barcha tizimini dastlabki tavsifi sifatida talqin etiladi, chunki maqsadning o’zgarishi butun qolgan quyi tizimning ham o’zgarishiga olib keladi, ya’ni mazmun, metod, vosita va shu kabilar. Tizimli faoliyatli yondashuv pozisiyasidan qaraganda maqsad faoliyat tomonidan qanoatlantirilgan ehtiyoj, bevosita natija sifatida faoliyatga yo’naltirilgan predmet singari aniqlanadi. Motiv sifatida maqsad butun faoliyatni, mazkur holatda tizimni yo’naltiradi va nazorat qiladi.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash amaliy, tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi va kasbiy maqsadlarni majmuaviy yo’nalish asosida amalga oshiriladi. Bunga tarbiyaviy, ta’limiy, rivojlantiruvchi va kasbiy maqsadlar axborotlardan foydalanishni amaliy egallashi va undan foydalanishda mas’uliyatlilikni tarbiyalash jarayonida erishiladi. Ammo axborot texnologiyasining turli xil vositalarini doimiy ravishda tatbiq etmasdan turib, axborot xavfsizligini amaliy nuqtai nazardan o’zlashtirishning iloji yo’q [82, 23-b.].

Axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayonida virtual muloqot ko'nikmasini shakllantirish oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan optimallashtirish bilan bog'liq, ya'ni o'qituvchining kommunikativ-shaxsiy yo'nalishi va kommunikativ malakasining kasbiy darajadagi yo'nalishini muammoli ta'limiy vazifalarni hal qilish kunlik muloqot vaziyatlari natijasi rivojlanishi bilan bog'liq, bunga zamonaviy axborot texnologiyalari yordam beradi [59].

Yangi axborot texnologiyalari va telekommunikasiyalar ta’limning an’anaviy vositasiga nisbatan bilimlarni yetkazishni va turli xil o’quv axborotlariga teng ravishda erishishni yanada tez va samarali yetkazib berishga qodirdir. Mavjud

tajriba va o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatadiki, o'quv kurslari sifati hamda tarkibi tarmoq texnologiyalari ta'limida o'qitilish sifati yuqori bo'lib, ta'limning an'anaviy shakliga nisbatan yangi imkoniyatlarni namoyon etadi.

Ushbu nazariy va amaliy tadqiqot ishida tarmoq ta'limi deyilganda – telekommunikasiya tarmoqlari yordamida bilimlarni o'zlashtirish va moslashtirishni tashkillashtirish jarayoni tushuniladi - lokal tarmoqlar, internet, telefoniya, virtual va sputnikli televideniye, radiotranslyasiya. Tarmoq texnologiyasini ta'limda masofaviy ta'limning asosi deb olishimiz mumkin. Bunday ta'lim yangi texnologiya bazasida sirtqi va kechgi ta'limning mantiqiy rivojlanishi va tashqi ko'rinishi hisoblanadi. Aynan shunday tizim, bir tomondan jamiyatning jadallik bilan o'zgarib borayotgan talablariga bir qiymatli, qayishqoqlik bilan javob qaytara olishi mumkin, boshqa tomondan esa fuqarolarni ta'lim olishga, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlashga ega bo'lishida konstitusiyaviy huquqlarini amalga oshirishni ta'minlaydi [56, 45-76-b.].

Masofaviy ta'lim tizimlari oliy yoki qo'shimcha ta'lim olishni istagan har qanday toifali shaxsga yangi imkoniyatlarni beradi. Respublikamizda hozirgi vaqtda yagona masofaviy ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ishlab chiqishga harakat qilinmoqda. Bu konsepsiya mamlakatimizda aholining keng qatlamiga eng yangi axborot texnologiyalarini qo'llashga asoslangan, masofada turib, o'quv axborotini almashinishga imkon beradigan ixtisoslashtirilgan ta'lim muhiti orqali taqdim etiladigan ta'lim xizmatlarining majmuasi sifatida belgilanadi. Yaqin kunlargacha bu maqsadlarda pochtalarda, audio-video ma'lumotlarni ko'rib chiqish va tanlab olishda, televideniyaning o'quv dasturlarida, bir martalik ma'ruzalarda, seminarlarda foydalanishgan. internet texnologiyalarining ta'limga kirib kelishi bilan ta'lim muassasalarida va o'qituvchilarda ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda prinsipial jihatdan yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi.

YuNESKO xorijiy ekspertlarining fikricha, yaqin 10-15 yil ichida g'arbiy va boshqa rivojlangan mamlakatlarda istiqomat qiluvchi shaxslar uchun zarur bo'lган ta'limning minimal darajasi to'liqsiz va to'liq oliv ta'lim bo'ladi. Ko'п sonli talabalarni kunduzgi shaklda o'qitishni hatto eng nufuzli mamlakatlar byudjeti ham bardosh bera olmaydi. Shu sababli so'ngi yillarda masofaviy ta'lim texnologiyalar bo'yicha ta'lim olayotganlar soni kunduzgi ta'lim olayotgan talabalar sonidan ko'payib borishi bejiz emas. Ta'limning masofaviy ta'lim shakliga o'tishning jahon tendensiyasida ushbu uslub va texnologiya bo'yicha tayyorlov ishlarini olib borayotgan oliv ta'lim muassasalari soni oshib borayotganligi ham kuzatilyapti. O'tgan asrning 1900-1960 yillarda jahonda masofaviy oliv ta'lim muassasalari 79 tani tashkil etgan edi, 1960-1970 yillarda – 82 ta, 1970-1980 yillar mobaynida esa – 187 tani tashkil etdi. Yigirma birinchi asrning boshlarida esa butun dunyo bo'ylab masofaviy ta'lim muassasalarining soni mingdan oshib ketdi.

“Interfaol o'zaro ta'sir” atamasi hozirgi vaqtida ilmiy ma'noda didaktik adabiyotlarda ham keng qo'llaniladi.

“Interfaol o'zaro ta'sir” – foydalanuvchini dastur bilan o'zaro muloqotidir, ya'ni matnli topshiriqlar va ularga beriladigan javoblar almashinuvdir. Yanada rivojlangan vositalar orqali bevosita muloqotning olib borilishi o'quv ma'lumotlar va ish tartibi mohiyati imkoniyatlarini tanlash imkonini beradi. Dasturni boshqarishning qanchalar ko'п imkoniyatlari mavjud bo'lsa, o'rganuvchi muloqotda shunchalar faol ishtirok etadi, interfaollik darajasi ham shu darajada yuqori bo'ladi. Bunda muloqotda ikkala tomonning ham faol ishtiroki talab etiladi, savol-javoblar bilan almashinuv, muloqot jarayonini boshqarish, qabul qilingan qarorlarni bajarilishini nazorat qilish.

O'zining mazmuni va vazifasi bo'yicha millionlab odamlarning bir-biri bilan muloqot qilishi uchun mo'ljallangan telekommunikasiya muhiti interfaol muhitining apriori hisoblanadi [80].

Kompyuterlashtirilgan o'quv jarayoni – birinchi navbatda butun tarkibli ta'lim sikllarining yig'indisi bo'lib, oraliq va yakuniy natijalarini maqsadli belgilash hamda tashxislash asosida ularning tarkibiy iyerarxik tartiblanishi, o'quv jarayoni texnologiyasining yaxlitlilagini ta'minlaydi.

Ta'limning har qanday sikli to'rtta klassik tarkibiy qismdan: maqsad, mazmun, vosita va o'zlashtirish jarayonidan iborat. Shuning uchun ham ta'limning har qanday sikli butun tizimning elementi bo'lib, ta'limga bo'lган tayanch bilim va motivasiyani faollashtirishni ta'minlashga, harakatning yangi tushuncha va usullarini shakllantirib, u o'zlashtirilgan ma'lumotlarni har xil darajali topshiriqlar tizimida ishlatishtirishni ta'minlashi zarur, bu esa o'z navbatida o'rganuvchilar bilimi va ko'nikmalarini o'zlashtirilgan tarkibga mos ravishda tashxislash nazorati bilan yakunlanishi kerak. Ta'limning turi, uslubi va shaklini tanlashda "pedagogik universallik", ya'ni kim, nima, qanday va nima uchun o'qitadi va fan sohasining xususiyatlari, hayot faoliyatining axborot didaktikasi hamda xavfsizligi e'tiborga olinishiga to'g'ri keladi.

O'quv kursi birinchi navbatda tarmoq texnologiyasi ta'limida mustaqil ishlashga yo'naltirilgan, biroq oxirgi vaqtarda kommunikasiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida guruhli-jamoaviy dasturlarni tuzish maqsadga muvofiq bo'lyapti, ko'p hollarda bunday dasturlar mikroguruuhlar tarkibida izlanishli ta'limiga yo'naltirilgandir. Tarmoq ta'limida ta'lim beruvchini "o'rgatuvchi" deb atash to'g'riroq bo'ladi, chunki u ko'p jihatdan o'qituvchi ta'sirining oddiy obyektidan ko'ra o'quv faoliyatining subyekti sifatida ijro etadi. Tajriba natijasida shunga amin bo'lish mumkinki, kompyuter orqali ta'lim oluvchining real individual o'quv faoliyati ikki asosiy prinsiplarning yig'indisi natijasida samarali bo'lishi mumkin: 1) ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda turli darajali o'quv-bilish imkoniyatlari bilan ta'minlash; 2) o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonini umumiylashtirish nazorat qilish va boshqarishni saqlab qolish.

Ta'lim oluvchilarni o'quv materiallari tuzilishining mantiqiy tarkibiga biriktirilgan o'quv-bilish faoliyatini bilvosita boshqarish, ta'lim oluvchilar faoliyatini boshqarish va nazorat qilishning og'zaki shakli bilan qo'llab-quvvatlanadi, bu orqali ularda bilimlarni o'zlashtirish, mos ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish ishlari sodir bo'ladi. Tarmoq texnologiyasida bunday ko'makning ekvivalenti har bir mashg'ulotga yoki ularning sikliga aniq belgilangan qo'rsatma hisoblanadi. Tarmoq texnologiyasida to'g'ridan-to'g'ri o'quv ta'siri real vaqt rejimida ham ("on-line" rejimi), sinxron rejimida ham ("off-line" rejimi) bajariladi. Bizning tajriba-sinov guruhlarimizda real vaqt rejimi guruhli yoki individual mashg'ulotlar va on-line maxsus texnologiyasini – o'quv telekonferensiyalari va kommunikasion resurslarini qo'llagan holda konsultasiyalar shaklida amalga oshirilgan, off-line rejimida esa butun guruh yoki har bir ta'lim oluvchi bilan alohida xat yozishmani ta'minlovchi elektron pochtalardan foydalaniłgan. Yuqorida ko'rib chiqilgan ikkala vaziyatda ham o'quv jarayonining muhim komponentlari amalga oshirilgan, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtaşıdagi muloqot shaklidagi aks aloqadir. Asosan, ta'lim oluvchilarda umumiy savollar paydo bo'ladi, shuning uchun ham eng ko'p ishlatiladigan savollar va ularga javoblarning maxsus bazasini tashkil etish zarur hamda bu bazaga tarmoqdan erkin murojaat qilishni ta'minlash kerak [65].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Полат Е. С. и др. Педагогические технологии дистанционного обучения : учебное пособие для вузов . -3-е изд. -Москва : Издательство Юрайт, 2020. — 392 с. : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/449298> (21.12.2021).

2. Информационное общество: Информационные войны. Информационное управление. Информационная безопасность. - ФЦП "Интеграция", СПб.: Изд-во СПбГУ, 1999.

3. Ибрагимов И.М. Информационные технологии и средства дистанционного обучения.: Учеб. пособие для студентов высш. Учебн. Заведения. -М.: Издательский центр «Академия», 2007.-336 с.
4. Олифер В. Г., Олифер Н. А. Компьютерные сети. Принципы, технологии, протоколы. Юбилейное 6 издание. Издательский дом «Питер». 2020 .-1010 стр.
5. Курицкий А. Б. Интернет: инфраструктура информационного общества. СПб.: Судостроение, 1999. — 230 с.